

KOMPETENTLIKKA ASOSLANGAN TA'LIMNING ZAMONAVIY
YONDASHUVLARI

FarDU Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti

Sh. Sh. Shuxratov

Sirtqi bo'lim Aniq va tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

B.A.Askarova

Annotatsiya. *Maqolada kompetentlikka asoslangan ta'limning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Kompetentlikka asoslangan ta'limning asosiy printsiplari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va nazorat qilishning yangi usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kompetentlikka asoslangan ta'limning afzalliklari va kamchiliklari, uni amalga oshirishda duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularni yechish usullari haqida muhokama yuritadi.*

Аннотация. *В статье анализируются современные подходы к компетентностному образованию. Рассмотрены основные принципы компетентностного образования, современные педагогические технологии, новые методы планирования, оценки и контроля образовательного процесса. В нем также обсуждаются преимущества и недостатки образования, основанного на компетенциях, проблемы, с которыми сталкиваются при его реализации, и пути их преодоления.*

Abstract. *The article analyzes modern approaches to competency-based education. The main principles of competence-based education, modern pedagogical technologies, new methods of planning, evaluation and control of the educational process are considered. It also discusses the advantages and disadvantages of competency-based education, challenges faced in its implementation, and ways to overcome them.*

Kalit so'zlar: *kompetentlikka asoslangan ta'lim, zamonaviy yondashuvlar, kompetentlik, ta'lim tizimi, ko'nikma, qobiliyatlar*

Ключевые слова: *компетентностное образование, современные подходы, компетентность, образовательная система, навыки, умения*

Key words: *competence-based education, modern approaches, competence, educational system, skills, abilities*


KIRISH

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va



nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi. Kompetentlikka asoslangan ta'lim (KAT) - bu talabalarni hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatli ishlashga tayyorlashga qaratilgan ta'lim yondashuvidir. Kompetentlikka asoslangan ta'lim nafaqat bilimlarni, balki ularni qo'llash ko'nikmalarini, shuningdek, muhim shaxsiy xususiyatlarni - **kompetensiyalarni** rivojlantirishga qaratilgan. Oliy ta'limni zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan electron va dasturiy ta'lim resurslarini takomillashtirish, talabalarning elektron ta'minotlar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limni amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, kerakli ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, ta'limning sifat ko'rsatkichlaridan biri kompetentlilikdir.

O'qituvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kompetensiya muammosining ta'lim sohasiga kirib kelishi va uning rivojlanish tarixini shartli ravishda to'rtta bosqichga bo'lish mumkin.



2006 yili Yevropa Parlamenti va Kengashi tomonidan uzluksiz ta'lim uchun ta tayanch va umumiy kompetensiyalar tavsiya qilingan bo'lib, ular: *o'z ona tilida muloqot qila olish; chet tilida muloqot qila olish; matematik*

kompetentlilik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar; raqamli kompetentlik; o'qishni o'rganish; ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi; tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg'usi; madaniyatdan xabardor bo'lish va uni ifodalay olish. Evropa tajribasiga tayangan holda O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, shakllantiriladigan ta'lim kompetensiyalarini tanlash va ularni ta'lim tizimiga singdirish orqali respublikamizda ta'lim tizimi samaradorligini oshirish mumkin.

Mamlakatimizning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar rivojlangan xorijiy ta'lim tajribasini tadbiq qilish, kompetensiyaviy yondashuvni o'qitish jarayoniga qo'llash va ta'lim maskanlari sharoitlariga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik va didaktik xususiyatlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu borada yurtimizda ko'plab professor olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo'lib, ulardan N.A. Muslimov kompetentlikka quyidagicha ta'rif bergan: “Kompetentlik- bu talabanning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi”. A.X. Mahmudov esa, kompetentlikni quyidagicha izohlaydi: “Kompetentlik bu doimo o'zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir”

Kompetentlik haqida gap ketganda «bilim darajasi» sifatida «u yoki bu ob'jektning mohiyatan realligini tafakkur qila olish» masalasining nazariy jihatlarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Mashxur ingliz psixologi Dj.Raven nazariy kompetentlik modelini va shu bilan birga uni baxolashda yangi yunalishlarni taklif etgan. Ravenning fikriga kura, kompetensiya bu anik bir vazifani samarali bajarish uchun talab kilinadigan tor doiraviy maxsus bilimlar, fikrlash yo'llarini qamrab oluvchi maxsus qobiliyat xamda o'zining harakatlari uchun javobgarlikni xis etishdir.

“Kompetentli” yondashuv asosida qurilgan ta'lim tizimida o'qituvchi va o'quvchining roli ham o'zgaradi. Chunki, “bilimli” yondashuvda o'qituvchi faol va asosiy ishtirokchi bo'lsa, o'quvchi esa passiv qabul qiluvchi sifatida qatnashadi. “Kompetentli” yondashuvda o'quvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta'lim olish faoliyati ko'proq mustaqil individual vazifalarni bajarish va ularni himoya qilishga, ijodiy amaliy mashg'ulotlarda doimo savollarga javob berish va shaxsiy tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo'ladi.

Kompetentli shaxsni tavsiflash (xususiyatlari, shaxsiy sifatlari, tarkibiy qismlari) shaxs tuzilmasida to'liq ta'lim, shaxs xususiyatlari tizimi, bilim,



ko'nikma va malakalarni egallash natijasida paydo bo'ladigan holatlar (tayyorgarlik, yo'nalish va boshqalar) sifatida ifodalanadi, ko'pincha esa kompetentli bilim va tajriba bilan bir xil tushuniladi. Pedagogik adabiyotlarda bugungi kunda “kompetensiya”, “kompetentlik” atamaları keng qo'llanilmoqda va o'z o'rnini topmoqda. Ammo, hozirga qadar ta'limning har qanday bosqich bitiruvchisining ideal obrazini tavsiflashda qo'llaniladigan “kompetentlik” tushunchasining bir xil va aniq ta'rifi mavjud emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aslonova Matluba Axtamovna, Taniyeva Malohat Fayzullayevna. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish, integratsiya ta'riflari “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 1-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi 2022. 89-90. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7376411>

2. Muxidova O. N. (2023). Ta'lim tizimida transversal kompetensiyaning ahamiyati. Pedagogik mahorat 3-son, 38-41.

3. Tsankov, N. (2012). Educational and cognitive tasks for the formation and development of competence for modelling in Chemistry and Environmental Sciences. Chemistry: Bulgarian Journal of Science Education, 21 (3), 327-340, (In Bulgarian).

4. Quysinov O.A. (2018) Some Aspects of Modular Educational Technologies Forming Professional Competence of Future Teachers. Eastern European Scientific Journal №4. 251- 257.

5. Muxidova Olima Nurilloevna. PEDAGOGIK HAMKORLIK JARAYONIDA

TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARNING ZARURIYATI. PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023. 318-32-b.

6. *B.A.Abdirakhimovna Integratsion yondashuv asosida talabalarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari «THIRD RENAISSANCE IN UZBEKISTAN AND INNOVATIVE PROCESSES»* Materials of the International scientific and practical conference 24.04.2024/ 517-519

7. M. M. Ahmedov , BA Askarova , GB Butaeva , ME Madaminova , NORakhmatova , MAMahmudova , MAXudoy Nazarova , GXSolieva , MGKhasanov , RASiddikova . Formation of Technological Competency of



Students on the Basis of Approaches with an Innovative Character. Biogecko
Vol 12 Issue 03 2023 ISSN NO: 2230-5807

8.B. A. Askarova " Innovative approaches based on of students
technological competence formation " of Uzbekistan new development
technology in the era
education direction sciences of teaching optimization republic issues
scientific and technical conference materials 15.03.2023. 86-92 b.

